

2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra,
O'zbekistonda:

Aholi:
35,6 mln. kishi

Ayollar:
17,7 mln. kishi

Erkaklar:
17,9 mln. kishi

8/

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

51 (16504)
2022-yil, 30-iyul
shanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Sharh
2-bet


Imkoniyat

Kun mavzusi
3-bet

Baxtli mamlakatlar reytingida
nechanchi o'rindamiz?

Mutasaddilar diqqatiga!
6-bet

Tozalik uchun
eng kam oylik



IT XIZMATLAR EKSPORTI 1 MILLIARD DOLLARGA YETKAZILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yuqorichirchiq tumanidagi
"Astrum" IT akademiyasida axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari,
yosh dasturchilar bilan uchrashdi.

batafsil
2-betda

IT XIZMATLAR EKSPORTI 1 MILLIARD DOLLARGA YETKAZILADI



Kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev Yuqorichirchiq tumani-dagi "Astrum" IT akademiyasiga tashrif buyurib, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari, yosh dasturchilar, IT va kommunikatsiya kompaniyalarining rahbarlari va xodimlari bilan uchrashdi. Uchrashuvda mamlakatimiz IT sektoridagi ishlarning bugungi ahvoli va uni yanada rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, ushu sohaga so'nggi besh yilda 2 milliard dollar, shundan 700 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yo'naltirildi.

"Bundan uch yil oldin IT-parklar tashkil qilib, ularga alohida soliq rejimini joriy etdik. Buning hisobi-ga bugungi kunda IT-parklarda 14 ming nafr yoshlar yuqori daromadli ish joylari bilan ta'minlandi. Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilgan IT mutaxassislari soni yil boshidan 2,5 barobarga o'sib, 43 mingga yetdi. Joriy yilning o'zida mamlakatimizda 134 ta yangi, jumladan, 50 ta xorijiy IT kompaniyalari tashkil etildi, eksportchi korxonalar soni esa 2 baravarga oshdi. So'nggi uch yilda mobil internet narxi 9 baravarga arzonlashdi va xalqaro reytingda 15-o'ringa ko'tarildik

(68-o'rindan). IT xizmatlari hajmi va eksporti bir necha barobarga o'sdi. Eng asosiysi, IT kasblarni egallash yoshlar o'tasida trendga aylandi, - dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari uchrashuv chog'ida boshqa hududlarda ham bunday IT akademiyalar tashkil qilish istagini bo'lganlarning tashabbuslari har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini, barcha masalalari hal qilib berilishini aytib otdi. Viloyat hokimlariga bir oy muddatda bu yerga kelib, barcha sharoit va imkoniyatlarni ko'zi bilan ko'rib, o'z hududida kamida 1 tadan shunday IT akademiya tashkil etish loyihasini boshlashga topshirq berildi.

Kelgusi besh yilda mammakatimiz IT xizmatlari eksporti 1 milliard dollarga yetkaziladi.

Uchrashuvda yoshlarni IT kasblarga o'qitishni to'g'ri yo'lga qo'yish, sifatli infratuzilma, kompyuter va kafolatli buyurtma bilan ta'minlash uchun 4 ta masalani hal etish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Xususan, internet qamrovi va sifatini keskin oshirish zarur. Hududlarni optik totali tezkor mobil internet (4G) bilan qamrab olish darajasi 70 foiz atrofida. 118 ta qish-

loqqa internet ham, mobil aloqa ham kirib bormagan.

Bundan tashqari, IT sohasida iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashni yanada ke-nngaytirish kerak. Bugungi kunda bunday yoshlarning startaplariga (230 ta) otigi 10 milliard so'm grant ajratilgan. Yoki kompyuter xaridi uchun 3,5 ming nafr yoshlarga kredit berilgan bo'lsa, kafil yo'qligi uchun 6,5 mingdan ziyod yoshlar ga kredit berish rad etilgan.

Qoraqalp'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan va Navoiy viloyatlarda esa IT-parklarni tashkil etish ishlari yakuniga yetkazilmagan.


"Siz, yoshlardan hamkasblari-nigiz, hamkorlaringiz, o'rtoqlaringizga shuni yetkazishlariginzni so'ryaman. Davlat tomonidan IT sohasini jadal rivojlanitarish bo'yicha kerak bo'ladigan barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratamiz. O'zimdan boshlab hamma rahbarlar sizlar bilan doimiy muloqotda bolamiz", - dedi Prezident uchrashuv yakunida.

Davlatimiz rahbari soha vakillari bilan ham ochiq fikr almashdi.

President matbuot xizmati ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

IM KONIYAT

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirini



Butunjahon nogironlik hisobotiga ko'ra, nogironlikning qaysidir guruhiga mansub bo'lganlar 1 milliarddan ziyodroq yoki dunyo aholisining 15 foizini tashkil etadi. Ularning 80 foizi esa rivojanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. O'rtacha daromadli iqtisodga ega O'zbekistonda so'nggi 10 yil davomida nogironligi bor deb topilgan shaxslar 2-3 foizni tashkil etib kelmoqda.

Dunyoda imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay, turli sohalarda ulkan cho'qqilar ni zabt etgan insonlar kam emas, sportchi, rassom, san'atkor, hatto siyosiy yetakchi bo'lgan shaxslar ham talaygina. Jahan tarixiga na-

zar solsak, "sariq matbuot"ning asoschisi Jozef Pulitser ko'zi ojiz bo'lishiga qaramay. Kolumbiya universitetiga 2 million AQSh dollarini qoldirgan. Erit Vayxenmayer ham ko'zi ojiz bo'la turib Everest cho'qqisini zabt etgan dunyodagi birinchi qoyachi alpinist. Lui Brayl - fransuz tiflo-pedagogi. 1829-yilda ko'zi ojizlar uchun haligacha ishlatalib kelayotgan rel'ef - nuqta Brayl shriftini ishlab chiqqan. Bu kabi misollarni sanasak, adagi yo'q.

To'g'ri, hammasi avvalo insoning o'ziga bog'liq. Ammo hamma narsaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatdagagi muhitning mevasi.

Yurtimizda mana shunday insonlar uchun qulay shart-sharoitlar, bepul va sifatli ta'lim olish uchun imkoniyatlар mavjud. Vazirlar Mahkamasining joriy yil 21-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratishning ma'muriy reglamentiga ko'ra, nogiron yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar, dasturlash, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish, zurur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun BHMning **50 baravari (15 million so'm)gacha subsidiya ajratiladi.**

SUBSIDIYA UCHUN ISTALGAN DAVLAT XIZMATLARI MARKAZIGA MUROJAAT QILINADI. ARIZALAR JORIY YIL UCHUN – 2022-YIL 1-AVGUSTDAN SHUNINGDEK, 2023-YILDAN BOSHLAB HAR YILI – 10-YANVARDAN QABUL QILINADI.



O'qish xarajatlari uchun subsidiya olishda arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- agar ariza bolaning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsli identifikatsiya raqами va bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat;
- nodavlat ta'lim tashkiloti tomonidan ariza beruvchini o'qitish to'g'risida shartnomaning elektron nusxasi.

Yashash va transport xarajatlari uchun subsidiya olishda:

- yo'l xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron nusxalari;
- ijara shartnomasi va uning soliq organlari hisobga qo'yilganligi haqidagi bildirishnomanning elektron nusxasi.

Davlat xizmati bepul ko'rsatilib, ariza 3 ish kunida ko'rib chiqiladi. Nodavlat ta'lim tashkiloti joylashtirish hududdagi mahallaning yoshlar yetakchisi zimmasiga ariza beruvchining nodavlat ta'lim tashkilotida o'qishini joyiga chiqqan holda monitoring qilish vazifasi yuklatiladi.

BAXTLI MAMLAKATLAR REYTINGIDA NECHANCHI O'RINDAMIZ?



Dunyo bo'yicha har yili turli yo'nalishlar bo'yicha davlatlar reytingi e'lon qilinadi. Bu mamlakatning imijini shakkantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Reytingda bir qator omillar e'tiboraga olinadi. Masalan, tabiiy boyliklar, aholining yashash tarzidan

mamnunligi, korruption holatlar, so'z erkinligi, fuqarolarning to'kis hayoti ta'minlanishi va boshqalar. Xo'sh, yangi O'zbekiston nufuzli tashkilotlar tomonidan e'lon qilinayotgan shu kabi reytinglarda qanday o'rinnarni band qilmoqda?

"Gallup"ning an'anaviy "World Happiness Report - 2022" baxtlilikni ko'rsatuvchi reytingida O'zbekiston 146 mamlakat orasida 53-o'rinni egalladi. Bu 2021-yilgi ko'rsatkichdan 11 pog'ona past. Shuningdek, O'zbekiston MDH-ga a'zo davlatlar orasida yetakchilikni boy bergan. Finlandiya reytingda besh yildan beri yetakchilik qilmoqda. U eng baxtli davlat deb topilgan. Keyingi o'rnlarni Daniya, Islandiya, Shvetsariya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Norvegiya, Isroil va Yangi Zelandiya egallagan.

Shuningdek, "Chegarasiz reportyorlar" xalqaro nohukumet tashkiloti tomonidan tuziladigan So'z erkinligi indeksining 2022-yilgi reytingida O'zbekiston o'z ko'rsatkichlarini birdan 24 pozitsiyaga yaxshilab, 157-o'rindan 133-o'ringa ko'tarildi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI INDEKSI

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksining (The Global Food Security Index) o'ninchisi nashri e'lon qilindi. O'zbekiston reytingda 113 ta davlat ichida 53,8 ball to'plab, 78-o'rinni egalladi. To'plangan ball O'zbekistonga oziq-ovqat xavfsizligi o'ratcha darajada bo'lgan davlatlar guruhida o'z o'rinni saqlab qolish imkonini bergen.

Global indeks oziq-ovqat xavfsizligi holatini to'rtta mezon bo'yicha tekshiradi: oziq-ovqat mavjudligi, miqdori, sifati va

xavfsizligi, tabiiy resurslarning xilma-xilligi va barqarorligi.

O'zbekiston oziq-ovqat mavjudligi bo'yicha 49,3 ball bilan 81-o'rinni, miqdori bo'yicha 51,3 ball bilan 76-o'rinni, sifati va xavfsizligi bo'yicha 65,1 ball bilan 60-o'rinni, tabiiy resurslarning xilma-xilligi va barqarorligi bo'yicha 55,4 ball bilan 30-o'rinni egallagan. Reytingda birinchi o'rinni 84 ball bilan Irlandiya, ikkinchi o'rinni 81,3 ball bilan Avstriya, uchinchi o'rinni 81 ball bilan Buyuk Britaniya, to'rtinchi o'rinni 80,9 ball bilan Finlandiya va beshinchi o'rinni 80,4 ball bilan Shvetsariya band qilgan.

RAQOBATBARDOSH SANOAT

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO, Avstriya) tomonidan "Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi - 2022" hisobotga e'lon qilindi. Hisobotda O'zbekiston 154 mamlakat orasida 89-o'rinni egallagan va so'nggi hisobotga ko'ra, reytingda 5 pog'onaga ko'tarilib, bu indeks metodologiyasiga muvofiq, sanoat rivojlanishining o'rta kvintiliga ega mamlakatlar toifasiga o'tish imkoniyatini yaratadi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida, indeksning oxirgi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston 8 ta indikatorning 6 tasida ijobji o'zgarishlarni qayd etgan, shu bilan birga, 2 ta indikatorda pasaygan.

TOSHKENT DUNYODAGI ENG QIMMAT SHAHARLAR REYTINGIDA

"Numbeo" tadqiqot xizmati tahlilchilar dunyoning eng yirik shaharlarda yashash narxini hisoblab, bu bo'yicha reytingni e'lon qildi. Tadqiqotchilar reytingni tuzishda uy-joy ijarasi, oziq-ovqat va restoranlardagi narxлarni hisoblab chiqqan. Ro'yxatdan jami 510 ta shahar o'rin olgan, Bermud orollari poytaxti Hamilton birinchi o'rinda qayd etilgan.

O'zbekistondan faqat Toshkent shahri reytingga kiritilgan bo'lub, u 465-o'rinni egallagan. Yashash narxi bo'yicha Top-10 shaharlardagi aksariyat o'rnlarni Shvetsariya shaharlari egallagan. Rossiya shaharlari orasida Sankt-Peterburg 279-o'rin, Moskva 287-o'rin, Olmota va Nursulton (Qozog'iston) mos ravishda 466 va 475-o'rin, Bishkek (Qirg'iziston) 477-o'rindan joy olgan.

"Numbeo"ning jinoyatchilik darajasi bo'yicha mamlakatlar reytingida O'zbekiston 142 mamlakat ichida 104-o'rinda ko'satilgan. Mamlakat indeksi 33,68 ni tashkil qildi. Reytingga ko'ra, O'zbekistonning ko'satkichlari Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya va boshqa davlatlarga qaraganda yaxshiroq. Jinoyatchilikning eng yuqori darajasi Venesuela, Papua-Yangi Gvineya va Afg'onistonga to'g'ri kelmoqda. Jinoyatchilik eng past darajasi Qatarda.

O'ZBEKISTON TINCHLIKSEVARLIK GLOBAL INDEKSIDA YUQORILADI

"Global Peace Index - 2022" reytingida O'zbekiston 7 pog'onaga yugorilab, 163 davlat orasida 86-o'rinni egalladi. Hisobotga ko'ra, O'zbekiston "Rossiya va Yevroosiyo" guruhida eng katta yaxshilanishni ko'rsatdi - 1,5 foiz.

Qo'shi mamlakatlar orasida Qozog'iston 97-o'rinda, Qirg'iziston 91-o'rinda, Tojikiston 92-o'rinda, Turkmaniston 104-o'rinda joylashgan. Eng tinchliksevar davlatlar deb Islandiya, Yangi Zelandiya va Irlandiya topildi. Indeksi eng past bo'lub turgan mamlakatlar: Afg'oniston, Yaman, Suriya, Rossiya va Janubiy Sudan.

Xalqaro reytinglardagi yaxshi natijalar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Sohralarga faol investitsiyalarning krib kelishi esa shubhasiz mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ammo reytinglarda qanchalik yuqori o'rnlarda bo'lmaylik, muhimi, xalqaro hamjamiyat e'tirof etayotgan islohotlar amalda to'laqonli o'zini namoyon etmasa, bari befoyda. Axir qilinayotgan ishlar qandaydir reytinglarda yuqori natijalarini egallash uchun emas, avvalo, vatandoshlarimizning turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbir

44-BUTUNJAHON SHAXMAT OLIMPIADASIDAN DASTLABKI G'ALABA



Kecha Hindistonning Chennai shahrida 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga start berildi. Dastlabki kun bahsida O'zbekiston erkaklar terma jamoasi Nepal terma jamoasi qarshi babs olib bordi. Ayollar terma jamoasi esa musobaqani Ganaga qarshi o'yin bilan boshladi.

Birinchi turda erkaklar terma jamoasi - Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yakubboev, Javohir Sindarov va Shamsiddin Vohidov nepallik raqiblari ustidan; ayollar terma ja-

moamiz - Umida Omonova, Afruza Hamdamova, Maftuna Bobomurodova va Marjona Malikova ganalik raqiblari ustidan g'alaba qozondi.

O'zbekiston - Nepal 4:0 (erkaklar)

O'zbekiston - Gana 4:0 (ayollar).

@alisher_sadullaev
telegram kanalidan olindi

BEPUL TO'GARAK TASHKIL ETDIM



Jahongir ISROILOV,
Farg'onan shahridagi
"Gulzor" mahalla yoshlar yetakchisi

Yoshligimdan kitob o'qishga qiziqaman. Mahallada yoshlar yetakchisi sifatida yoshlarni kitob-xonlikka jaib qilish asosiy vazifalarimdan biri deb hisoblayman. Shu maqsadda nafaqaqt "Gulzor" mahallasi yoshlari, balki butun O'zbekiston miqyosida yoshlarni kitob o'qishga qiziqitirish yo'lini izladim.

Bir kuni kitob o'qishga qiziqimni bilgan bir hamkasbim xarid qilgan yangi kitobini menga olib kelib, uni o'qishga qizinalayotganini, o'qishdan zerikib qolayotganini aytди. Men enga bu kitobning qisqacha mazmunini tushuntirib berdim. Bu Djeyms Klirning "Atom odatlар" degan kitobi edi. Oradan bir hafta vaqt o'tib, hamkasbim bu kitobni o'qib tugatganini aytди.

Agar yetakchini shu yo'l bilan kitob o'qishga qiziqitira olgan bo'ssam, yoshlar orasida ham shunday yo'l tutsa bo'ladi, degan fikrga keldim. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olganim uchun bir qancha badiiy kitoblar haqida qisqacha roliklar tayyorlay boshladim. Bu borada men uchun muammo tug'ilmadidi. Bo'sh vaqtlarimda 3 ta kitoga retsenziya tayyorladim. Hozirgi vaqtida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asariga retsenziya tayyorlayman.

Kitoblar haqidagi lavhalar ni mahallamizning telegram kanaliga uzatdim. Lavhani ko'rgan yoshlar bu kitoblarni topib berishimni so'rav keldi. Men esa navbatma-navbat kitoblarni topib berdim. Shu taripa yoshlarning kitob o'qishga qiziqishini oshirib bormoqdaman. Hattoki qo'shni mahalla yoshlari ham kitob so'rav murojaat qilishmoqda. Ularga ham imkonim bo'richa yordam beryapman.

“
ENG KO'P MUROJAAT
INGLIZ TILI VA IT SOHALARIDA
TO'GARAK TASHKIL ETISH
BORASIDA
BO'LDI.

O'QUV KURSLARI FAOLIYAT BOSHLADI

Xatlov jarayonida mahallamiz yoshlarining istaklarini so'rav, surushtiriganimda eng ko'p murojaat ingliz tili va IT sohalarida to'garak tashkil etish borasida bo'ldi. Shunday markazlar ochishdan avval mahallada kam ta'minlangan oilalar bilan tanishib chiqdim. Bu oilalarda har bir farzandi uchun 400 ming so'mdan to'garak chiqimlarini qoplash uchun mablasqar quriligi aniqlagdim. Shuning uchun mahallamiz hududida joylashgan maktab binosida ingliz tili va IT sohalaridan bepul to'garak tashkil etdim. Bir oz vaqt o'tib, o'quvchilar soni ko'paydi.

Farg'onan shahri yetakchilarida ham ushbu loyiha qiziqish oshib, huddularidagi kam ta'minlangan oilalar farzandlarini taysiyanoma asosida yubora boshladi. O'quvchilarning soni 80 nafarga yetganda loyihami kengaytirish haqida o'ylab, volontyorlar jamaosiga taklif bilan murojaat qildim. Hozir shahar bo'ylab 12 ta o'quv markazida 150 nafardan ortiq yoshlar, kam ta'minlangan oilalar farzandlari ta'lif olmoqda.

O'QUVCHI TARTIBGA SOLINDI

Mahalladagi yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida mahallamiz huddida joylashgan 25-maktabda profilaktika inspektori va maktab psixologi bilan tez-tez reyd-



lar tashkillashtirib turamiz. Shunday reydlarning birida 8-sinf o'quvchisining ichki cho'ntagidan sovuq qurol topildi. Mahallamizda istiqomat qiladigan bu yigitning ota-onasiga vaziyati tushuntirdik. Ularning so'ziga ko'ra, farzandining tarbiyasi juda og'ir, biron tanbejni olmas, har bir gapga qarshilik qilar ekan. Ota-onasi roziligi bilan uni o'z nazoratimga oldim. Uni ingliz tili va IT sohasidagi to'garaklarga birkirtirib, darslariga qatnashishini nazorat qildim. Bir-ikki marta qarshilik ham qildim. Vaqt o'tib hamma shartlarimizni bajara boshladi. Shu taripa maktabdagagi yurish-turishi butunlay o'zgardi. Buni maktab o'qituvchilari ham ta'kidladi. Hozir maktabdan ta'tilga chiqqan o'quvchi to'garaklarga qatnayapti. Uning onasi farzandi juda o'zgarganini, bo'sh vaqtida dars bilan shug'ulanayotganini bildirib, rahmat aytidi.

31 TA YANGI ISH O'RNI YARATILADI

Mahallamizdagi aksariyat xodonlar ko'p qavatlari uylardan iboratligi bois yoshlarga ish o'rinni yaratish biroz mushkul vazifa. Shuning uchun "Moturudiy 62" ko'p qavatlari uyning yerto'lasini ijara ga oldim. Hozir u yerda ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Yerto'lada mahallamiz yoshlari, xotin-qizlari uchun 31 ta ish o'rni yaratishni niyatimiz bor. Jumladan, tikuvchilik, sartaroshlik, manikur va pedikur bo'yicha yangi ish o'rinni ochilishi kutilmoqda. Qolgan 3 ta xonani mahalla yoshlari uchun "Zakovat", kutubxona, shaxmat va shashka xonasi uchun ajratib, ta'mirlaymiz.

Maqsadlarimga erishish uchun doim izlanishdaman. Bu lavozimda faoliyat olib borayotgan kishi, avvalo, halol va kamtar bo'lishi lozim. Halollik ichki sokinlik va xotirjamlikka yetaklaydi. O'z ustidma ishslash esa intellektual rivojanishiga olib keladi. Bunda esa menga ko'proq kitob o'qish yordam beradi. Hamkasblarimga ham shuni tavsiya etaman.

NAVBAHORLIK YOSHLAR I-O'RINNI EGALLADI



Mahalla yoshlari o'rtaida "Charm to'p" an'anaviy futbol musobaqasining Navoiy viloyati bosqichi bo'lib o'tdi.

Navoiy shahridagi viloyat futbol akademiyasining "Kimyo-gar" o'quv-mashg'ulot bazasi hamda Karmana tumani yoshlari o'zingohida o'tkazilgan musobaqalar qizg'in va murosasiz kurashlarga boy bo'ldi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Navbahor tumani jamaosi 1-o'rinni egalladi. 2-o'rinni Karmana tumani, 3-o'rinni G'ozg'on shahri jamaosi qo'lg'a kiritidi.

G'olib jamaoa va sovindorlar medal, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbirini

G'ALABA NASHIDASI



Kumushxon O'RINBOYEVA,
“Besh tashabbus olimpiadasi”
g'olib

Sportda muvaffaqiyatga erishish insondan sabr-toqat, metin iroda talab etadi. Lekin mashaqqatlaridan cho'chimay, murabbiy ko'rsatmasiga amal qilib, maqsad va marrasari dadil qadam tashlagan har bir sportchi, albatta, g'alaba qozonadi. Buning uchun u ham jismonan, ham ruhan tayyor bo'lishi kerak.

O'ilada ikkinchi farzandman. Bolaligim juda qiziqarli o'tgan: musiqa, sport to'garaklariga qatnashardim. Akam yengil atletika bilan shug'ullanishni boshlagach men ham u bilan birga mashg'ulotlarga qatnadm. Ota-onam qiziqishlarimizga qarshi bo'lмаган, aksincha, doim sharoit yaratish berishgan.

Dastlab maktabimizda Dang'ara bolalar va o'smirlar sport maktabi murabbiysi D.O'rinboyev rahbarligida tashkil etilgan basketbol to'garagiga qatnashdim. Yuguish sporchi ham men uchun qiziq edi, lekin bunda natijaga erishishga unchalik ishonmas edim. Qiyinchiliklar sabab sportdan ketishga ham qaror qilganman, biroq ustozimning menga ishonchi yana sportga qaytardi.

Har bir musobaqaga chiqishdan oldin “Hammaning e'tibori menda turibdi, bu yerda o'zingni ko'rsatmasang, qachon ko'rsatasan, bugun sen g'alaba qozonishing, medal olib seni kuzatayotganlarni xursand qilishing kerak”, – deb ruhiyatimni ko'tarishga harakat qilganman.

Xorazm viloyatida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o'tkazilgan yengil atletika turi bo'yicha respublika final bosqichida 1-o'rinni qo'lg'a kiritdim.



“O'ZBEK MODELI” NI YARATAMAN

Yagona maqsadimiz – yangi O'zbekistonning bu-guni va kelajagi barqaror bo'lishi, xalqimizning farovon hayotini ta'minlash borasida birlashib, qo'lini qo'liga berib harakat qilishdir. Bu yo'lda yoshlarimiz ham katta kuch bo'lib intilishmoqda. Ana shunday yoshlardan biri – “Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohibi Xojiakbar Muhammadjonov.

– 23 yoshni qarshiladim. Axborot texnologiyalari sohasida respublika va xalqaro yutuqlarga erishib kel-yapman. Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot poydevorini barpo etishda qalbimdag'i shiojat, yuragimdag'i g'urur bilan tengdoshlarimga namuna bo'lishga harakat qilaman. Eng olyi maqsadim – texnologiya va avtomatlashtirish sohasida “O'zbek modeli” ni yaratish, – deydi qahramonimiz.

Xojiakbar O'zbekiston Xalqaro islam akademiyasining Axborot xavfsizligini boshqarish mutaxassisligi 1-bosqich magistranti. Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivojlantirish vazirligi stipendiyasini qo'lg'a kiritgan. 2020-yilda “Yil talabasi – 2020” ko'rik-tanloving “Yil-

ning o'z sohasi bo'yicha eng bilimdon talabasi” yo'nalishi g'olib. Ayni damda ilmiy ishlar, innovatsion g'oya-lar, loyihiolar, ixtiolar, robototexnik ishlammalar hamda dasturlash yo'nalishlarida yangi tashabbuslari ustida ish olib bormoqda. Ilm-fan nazarasi, texnologik yechimlar, avtomatlashtirish mavzularida ilmiy ishlar, tezis va maqolalar respublika va xalqaro nashrlarda chop etilgan.

Germaniyada “Development of tin tack to the terminal or tin filling terminal” deb nomlangan ilmiy ixtiro ishiga xalqaro patentni qo'lg'a kiritgan. “Optik tarmoqlarda axborot xavfsizligi” nomli monografiya hamda “Avtomatik boshqarish texnikasi-ga kirish” uslubiy qo'llanmalari mazkur yo'nalishda ta'lim olayotgan tengdoshlari uchun qulay dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugunga qadar 5 ta maktabning veb-sayti, 40 dan ortiq robototexnik qurilmalar, 15 dan ortiq dasturiy vositalar yaratuvchisi hamda 3 ta yirik innovatsion loyiha, 21 ta innovatsion targ'ibot loyihasi, 20 ta innovatsion qurilma loyihalarinining mulliflik huquqiga ham ega.

Dilnoza TOSHTEMIROVA tayyorladi



IM KONIYAT

Prezidentimizning 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun bir qator imtiyoziar belgilangan. Jumladan, davlat-xususiy sherikchiliqi shartlarida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari:

- tashkil qilinayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ning ehtiyojlar uchun o'matilgan tartibda tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan uskunalar, asbob-anjomlar, o'quv qurollari va o'yingohlar davlat-xususiy sherikchiliqi to'g'risidagi bitim tuzilgan kundan boshlab 2 yil muddatga bojxona to'lovlar (bojxonada rasmiylashtirish uchun yig'ilmalardan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi;
- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshira boshlagandan keyin o'n yil

NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA O'QISH UCHUN IMTIYOZLAR



mlobaynida barcha turdag'i soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalari ga majburiy ajratmalar to'lamaydi;

- ko'satsilgan soliq va bojxona imtiyozlarini maktabgacha ta'lim sohasida ko'satsilayotgan xizmatlardan oladigan sof tushum ulushi umumiylar realitsiya hajmida soliq hisobot davri yakunlariga ko'ra kamida 80 foizni tashkil etadigan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariiga nishonlat bo'laniladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy ko'makka muhitoj oilar farzandlarini va maxsus kontingentdan muayyan miqdordagi tarbiyalanuvchilarni o'qitish, ular uchun ota-onalar to'lovining imtiyoziyi miqdordari belgilanadi va ular ustuvor ravishda o'qishga qabul qilinadi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Mazkur imtiyozidan foydalanan uchun nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari mahalliy davlat soliq xizmati organlariga va vakolatli bojxona organlariga davlat-xu-

suisi sherikchiliqi to'g'risidagi bitim tuzganligi va maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlaridan oladigan sof tushum ulushi umumiylar realitsiya hajmida soliq hisoboti davri yakunlariga ko'ra kamida 80 foizni tashkil etganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Ijtimoiy ko'makka muhitoj oilar esa farzandlarini ustuvor ravishda o'qishga qabul qilish va ota-onalar to'lovining imtiyozi miqdordan foydalish uchun fuqarolarning o'zini ozi bosqarish organlari va tegishli hududiy sektorlar rahbarlariga murojaat qilishlari, jumladan, “Temir daftari”, “Ayollar daftari” yoki “Yoshlar daftari”da qayd etishni so'ashlari mumkin.

Mazkur imtiyozlardan foydalanan uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan. Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlari “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

TOZALIK UCHUN ENG KAM OYLIK

OBODONLASHTIRISH XODIMLARI BILAN BIR KUN

Ovgatlanish uchun yemakxonaga yoki mehmonga taklif etilganda birinchi bo'lil e'tiborimizni tortadigan jihat bu - tozalik! Va bu mutlaqo tabiiy. Illi taassurot tashqi ko'rinishga qarab paydo bo'lganidek batartib va ozoda joyda insonlar o'zlarini yaxshi his qiladi.

O'ylab ko'rlisa, kunimizning katta qismi ko'chada o'tadi: ishga, o'qishga boramiz. Ma'lum manzil sari otlanar ekanmiz, hammamiz ham ishlarnimiz oson va tez bitirib qaytishni niyat qilamiz. Biroq o'zimiz ba'zan bilib, ba'zan bilmagan holda boshqalar uchun qo'shimcha, aniqrog'i, ortiqcha ish "orttiramiz".

To'g'ri, bu ularning ishi, shuning uchun davlat byudjetidan maosh oladi, ammo ko'cha faqat ularniki emas-ku? Nega endi tozalikka faqat ular roya qilishi, bi tashlagan yel'm idish va boshqa qog'oz-qiyqim chiqindilarni ular yig'ib yurishi kerak?! Shu chiqindini duch kelgan joyga emas, chiqindi qutisiga tashlasak, asakamiz ketib qoladimi? Toza ko'chalardan yurishimiz, musaffo havodon nafas olishimiz ortida kimlarning mashaqqatlari mehnati yotibdi? Bugun ularsiz bir kun ham o'tmaydigan, ham mehnat qilib, ham savob olayotgan tozalik navkarları - obodonlashtirish xodimlari hayotiga nazar tashlaymiz!



JARIMALAR HAQIDA BILASIZMI?

Qator rivojlangan davlatlarda ko'chalar ozodaligiga putur yetkazuvchilarga qat'yi javobgarlik va katta miqdorda jarimalar belgilangan! Masalan, Singapurda ko'cha tozaligiga mas'ul maxsus nazoratchilar sigaret qoldig'i yoki shirinlik qog'ozini ko'chaga tashlab ketayotganining ko'rib qolishsa, birinchi martasida 300 dollar jarimaga tortilasiz. Agar shunda ham to'g'ri xulosa chiqarmasdan atrof-muhit tozaligiga

zarar yetkazishda davom etsangiz, jarima miqdori har safar bir necha barobarga oshib borishi, hatto ming dollarga yetishi, undan ham yomoni doimiy ravishda axlat terib yurishga majburlanishingiz mumkin.

Xorijda nafaqat ko'cha tozaligi, balki unga javobgar shaxsllarning mehnati ham qadirlandi. Masalan, Pekin ko'chalari tozalik xodimlari oylik maoshi bilan oilasini to'liq ta'minlashi va hatto jamg'arib, mashina olishi mumkin.

66

TOSHKENT SHAHAR OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASIDAN USHBU MUAMMOGA E'TIBOR QARATISHLARINI SO'RAB QOLAMIZ

1-BRIGADA - KONTEYNERDA ISHLAYIDI

Oylik maoshi qanchalik ko'p bo'lmasin, ish sharoiti juda katta ahamiyatga ega. Masalan, ish joyidagi ovqatlar saqlanadigan muylatich, sovitkich, issiq va sovuq suv, hojatxona kabilasiz normal mehnat sharoitini tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, siz eng og'ir va mas'uliyatlari ishni bajarayotgan xodim bo'sangiz...

Balki, tasavvur etish qiyindir, biroq Toshkent shahar Obodonlashtirish boshqarmasining Yunusobod tumanidagi ayrim brigada xodimlari shu kabi sharoitlardan mahrum. Mustaqillik maydoni atrofidagi hududlar tozaligi uchun javobgar xodimlari orasida Toshkent viloyatining Parkent, Yuqorichirchiq, Yangiyo'l tumanlaridan ishga qatnaydiganlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Teknika taraqqiy etgan davrda yashyapmiz biror yerga borish maqsadida ko'chaga chiqsangiz, metro yoki avtobus, eng kamida taksi topish muammo emas. Biroq "tekinga mushuk ham oftobga chiqmaganidek", viloyatdan shahar markazidagi ish joyiga borish uchun har kuni 20 ming so'm atrofida pul sarflashga to'g'ri keladi, shu bilan birga, ko'p farzandli yoki bemor parvarish qildigan oila bekalari uchun ham o'sha-o'sha oylik ish haqqi - 1 million 600 ming so'm!

"Pulni tejash maqsadida uyimizdan o'zimiz uchun ovqat olib kelamiz, ammo issiqni ko'rib turibsiz, tushlik vaqt niari tursin, bir necha soat ichidayoq ovqat buzilib qolyapti. Uni yeb bo'lmaydi. Kichikroq bo'lsa ham muzlatkich bo'lganida shuncha narsa uvol bo'lmasdi", - deydi ulardan biri.

Xodimlar dam olishi va kiyim almashtirishi uchun yonma-yon joylashtirilgan ikkita konteynerning ayollar uchun ajratilganiga kirar ekanmiz, yuzimga ko'chadagi haroratdan bir necha barobar issiqroq havo urildi. Hordiq chiqarish tugul, nafas olish muammo ga aylangan bu "koshona"da har kuni 10 dan ortiq ayol xodimlar kiyim alishtirib, ovqatlananadi. Yuzqo'li yuvish uchun konteyner atrofida joylashgan idora va tashkilotlar ofisidan suv olib kelishadi. Endi hojatxona masalasini tasavvur qilavereng.

Yaqin atrofdagi ko'p qavatlari uylarda istiqomat qiluvchi aholining ta'kidlashicha, boshqa tumanlardi, hatto Yunusobod tumanidagi boshqa tozalik brigadalari uchun qisman yaxshi sharoitlar yaratib berilgan. Biroq aynan shu 1-brigadaga kelganda sharoitlar eshigi yopilgan yoki tugab qolgandek.

Joy va yaxshi sharoit topish masalasida ham hududda istiqomat qiluvchi ayrim fuqarolar yaxshi takliflar berishdi. Masalan, uncha uzoq bo'lмаган hududdagi "O'zbekiston pochta" AJ "Toshkent pochta" filiali 17-aloqa bo'limi, xalq tili bilan aytganda, "pochtaxona" binosida bo'sh xonalar bor. U yerdagi sharoit konteynerlarga qaraganda, albat-ta, juda yaxshi ekani aniq.

"Yozda salqin, issiq va sovuq suv, hojatxonasi bor. Boshqa sharoitlar ni ham yaratso bo'ladi. "Domkom"-ga bir-ikki aytdim, shu binoning bitta xonasini bo'lsa ham tozalik xodimlariga ajratib berishsin, savob bo'ladi deb. Taklifimni ma'qullashdi, "beradigan bo'lischibdi" deb eshitdim-u, keyin yana tinchib ketdi", - deydi uylardan birida yashovchi befarq bo'lмаган onaxon.

Bu muammo hal qilinsa, nafaqat munosib mehnat sharoiti yaratilgan, balki tozaligimiz uchun javobgar bo'lgan insonlarga minnatdorchilik ham bildirgan bo'lar edik. Toshkent shahar obodonlashtirish boshqarmasidan ushbu muammoغا e'tibor qaratishlarini so'rab qolamiz va oylik maoshini ko'paytirish masalasiga ham jiddiy qarash vaqtini yetganini eslatmoqchimiz. Agar ish haqlari oshirilsa, erta sahardan kech shomgacha tinim bilmaydigan xodimlar dam olish vaqtida ham qo'shimcha mablag' to'plash uchun yel'm idishlarni yig'ib sotish yoki ko'p qavatlari uylar podyezdini tozalab berishni emas, hordiq chiqarishni o'ylasharmidi, balki?

Ziyoda RAHIMBOYEVA
mos.toshkent.oshirish.uz/tayyorladi



TOZALIK XODIMINING MAOSHI QANCHА?

2022-yil holatiga mamlakatimizda o'tacha nominal oylik ish haqi 3,4 million so'mni tashkil etayotgani haqida Statistika qo'mitasini xabar qilmoqda. Bank, sug'urta, lizing, kredit, axborot va aloqa sohalari da esa eng yuqori o'tacha oylik ish haqi 6,5-8,4 million so'mni tashkil etmoqda. Shu o'rinda, atrof-muhitni chinnidek tozalab yurgan obodonlashtirish xodimlarining ish haqi bi-lan ham qiziqsdim.


Bu "qora" ishlarni qilishdan uylamay, shirinlik gulqog'ovi yoki ichimlik idishini behijolat uloqtirib ketgan vaqtimiz, bittalab terib olgani, supirib-sidirgani evaziga beriladigan ish haqining o'tachasi emas, eng yuqorisini **1 million 600 ming so'mni tashkil etmoqda**.

Yuqorida sanab o'tilgan soha va killarining o'tacha maoshi ularning

bir necha oylik mehnat haqiga teng ekan. Xo'sh, **ularga mehnatini oqaydigan, rag'bat bera oladigan ish haqi to'lansa, nima bo'ladi?** Ular ham mehnatiga yarasha haq olishi mumkin-ku? To'g'ri, balki o'z vaqtida oly ta'lil o'magandir, ammo og'ir va eng muhim, halol mehnat qilmoqda-ku...

Turli davlat idora va tashkilotlari, yetakchi sohalarning eng "yuqori" kursisida o'tirgan ayrim amaldorlar o'zining mo'may maoshiga qanoat qilmay, poralarini cho'ntagiga joylayotgan vaqtida, 2 million so'm bilan olasining bir oylik xarajatini qoplab o'tirgan oila boshlig'ini ko'z o'ng'ingizga keltiring-al! U boriga qanoat qilishga rozi, ammo bozorda oddiy qolipli non 2700 so'm bo'lib turgan hozirgi davrda yaxshiroq yashash haqida xayol surish ham kulgili va shu bilan birga achinarli ko'rindan!

G'OLIB ANIQLANDI!



Yoshlarni boy tariximiz bilan yaqindan tanishitirish va muzey sayohatlariga jalb etish maqsadida tashkil etilgan "Muzey va yoshlar" loyihasining ikkinchi soni e'tiboringizga havola etilgan edi. Belgilangan muddat ichida faoliik ko'satgan ishtirokchilar orasidan g'olibni aniqladi! U O'zbekiston jurnalistika va omaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi Musurmonova Xolida Alisher qizi. Quyida uning qiziqarli taqrizi va fotolari bilan tanishishingiz mumkin. Shuningdek, faol ishtirok etganchilar uchun Farrux Berdiyev, Shahboz Arslonov, Gulmira Xo'jayevaga tashakkur aytamiz!

"Ko'nglimga qilisig'masa qishloqni sog'inishim rost. Shunday payt men hali chegarasini bilmaydigan qirlarim-u, turli janorolar makoni bo'lgan tutzor (afsus, u hozir yo'q) ko'z oldimdan o'tadi. Shu bois "Yoshlar ovozi" gazetasida e'lon qilingan loyiha ishtirok etish maqsadida tabiat muzeysiga bordim. U yerda qushlarni ko'rib tutzor ichida opam bilan qirg'ovul quvgan bolaligim yodimga tushdi. O'shanda oyoq-qo'lli chaqqon qirg'ovullarning hatto dumidan ham tuta olmagandim. Mag'lubiyat ta'mi achchiq ekanini his qilgandim shu lahma. O'zbekiston davlat tabiat muzeysi esa ularni juda yaqindan tomosha qildim: vazni 1,2-2,3 kilogram keladigan bur-

gut, "Oqqush ko'l" baletidagi nozik qizlarni eslatuvchi turna va bolalikni eslatuvchi qirg'ovul...

Burgutning o'tkir timoqlari orasida turgan baliq menga yashash mashaqqatini yodga soldi. 1918-yilda AAMel tomonidan muzeyga in'om qilingan 1290 ta namunalarдан iborat bo'lgan tropik kapalaklar kolleksiyasini ko'rib, lahzalik umrida go'zallikka intiluvchi hasharotlarning qanotlariga havas qildim. To'g'ri, ular tirik emas, lekin haliyam go'zallik ulashmoqda. Pitekantrop, sinantrop, neandertal, kromanyon kabi ilk odam ajoddolaring tosh haykalchalaribitdoni yodga solsa, muzlatilgan inson organizmlari intihoni eslatib turadi.

Muzeyni tomosha qilgani kelgan bolajonlarning nigohidagi hayrat menga ko'chdi. Bu bo'limga kirib, qimmatbaho toshlardan topgan zavqimni ham unutdim. Bir ko'zli qo'zichonaqning yagona ko'ziga bo'qib o'zimning ongli mavjudot - inson ekanligimdan uyaldim. Tabiat - hammamizning ildizimiz. Qirg'ovulni tuta olmaganim alami endi menda yo'q. Agar ularni yaqindan tomosha qilishim mening g'alabam bo'lsa, men bu zavqdan voz kechaman. Nigohi-la yig'layotgan embrionga qarab inson kuch-qudratiga mahliy ham bo'lolmayman. Tabiat muzeyi tabiatni tanishish uchun emas, o'zligimizni anglash uchun xizmat qiladi, menimcha!"

Xolida MUSURMONOVA,
loyha g'olib

G'olibimizga gazeta tahriri yati tomonidan jahon va o'zbek adabiyotining eng sara asarlari to'plami, kreativ dizayndagi tashakkurnoma va loyihamizning navbatdagi manzili bo'lishi kutilayotgan O'zbekiston davlat san'at muzeysiga ikki kishilik (mutaxassis-gid hamrohligida) yo'llanma topshirildi. Fotolarni kuzatib bu hayajonli lahzalarning guvohi bo'lishingiz mumkin!



SIN MAGAN HAQIQAT

Mansur Raxmanov 2001-yili Ichki ishlardan vazirligi Akademiyasini bitirdi. Oliy ta'lim oltagan har bir talaba yuskak orzular bilan yaxshi ish joylarida ishlashni xohlaydi. Shu maqsadda u Yangibozor tumanichki ishlardan bo'limi jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'linmasi tezkor vakili sifatida ish faoliyatini boshladi. Keyinchalik katta tezkor vakili, Xorazm viloyat IIB JQ va TQKB katta tezkor vakili lavozimlarida ishladi.

2009-yil fevral oyida sobiq xavfsizlik xizmatining viloyat boshqarmasi xodimlari tomonidan Mansur Raxmanovga nisbatan turli yolg'on va tuhmatdan iborat uydirmalar to'planib, jinoyat ishi qo'zg'atildi. Oqibatda Yangibozor tuman IIB va Xorazm viloyat IIB kadrlar boshqarmasi rahbariyati undan "o'z xohishi bilan" ishdan ketish yuzasidan bildirgi yozib berishini qat'iy talab qildi.

Biroq Xorazm viloyati tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazilganda Mansur Raxmanov noqonuniy harakat so'dir etmaganligi o'z tasdig'ini topadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasini talablariga zid ravishda ko'satmalar to'plangani oshkor bo'lgach ham Xorazm viloyat IIB rahbariyati Mansur Raxmanovdan ruhiy bosim ostida ishdan ketish haqida bildirgi yozib berishini talab qilgan.

Mansur Raxmanov bunga rozi bo'lmagach kadrlar boshqarmasi "bildirgi sanasini qo'ymasdan yozib, ishlab yuraver, bu bildirgi sanasiz qonuniy kuchga ega bo'lmaydi, senga hukm chiqarilsagina ishdan bo'shatamiz" degan mazmunda tushuntirish bergan. Shundan so'ng Mansur Raxmanov sanasini ko'satmay, o'z ixtiyori bilan ishdan bo'shatish to'g'risida bildirgi yozib berib, Yangibozor tuman IIB jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'linmasi katta tezkor vakili sifatida ishini davom ettirib kelgan.

Afsuski, u 2009-yil o'talarida MXX xodimlarining noqonuniy xatt-i-harakatlari oqibatida jinoyat ishlari bo'yicha Urganch shahar sudi tomonidan jinoyat ko-

deksining turli moddalari bilan ayblanib, sudlangach ishdan ketishga majbur bo'lgan. Sudga qayta shikoyat bilan murojaat qilganligi natijasida 2021-yil 10-sentabr kuni to'liq oqjandi.

Ishdan asossiz ravishda bo'shatilganligi yuzasidan Xorazm viloyat IIB va Ichki ishlardan vazirligiga bir necha mafotlarda murojaat qilgan. Biroq to'liq reabilitatsiya qilinib, oqlangan bo'lishiga qaramay, viloyat IIBga qayta ishga qabul qilish bo'yicha murojaatiga rad javobi beriladi.

Shundan so'ng sudga murojaat etgan Raxmanov Mansur Jumabayevich Xorazm viloyat IIBning 2009-yil 12-martdagil 15-sonli buyrug'i g'ayriqonun deb topib, o'zini avvalgi ishga tiklashni so'rab tushuntirish berdi. Sud taraflarning tushuntirish va muizzakaralari ni eshitib, ish hujjalari dailillar va sud majlisida aniqlangan holatlarni tahlil qilib, da'vogarning talabini asosli deb topdi. Chunki da'vogarni xizmatdan bo'shatishda ish beruvchi mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilmagan.

Xalqimizda haqiqat egiladi, bukliladi, lekin sinmaydi degan naql bor. Niroyat Mansur Raxmanovning bag'riga haqiqat shamoli tegib, 2009-yil 12-martdan Yangibozor tumanichki ishlardan bo'limi jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'linmasi katta tezkor vakili lavozimiga ishga tiklandi.

Begzod RAJABOV,
Fuqarolik ishlari bo'yicha
Urganch tumani lararo sudining sudysi

HIND
TILINI
ORTDA
QOLDIRDIK

WIKI
STIPENDIYA

"WikiStipendiya" marafoni start oltagan so'ng o'zbek tilidagi maqolalar soni 155 mingdan oshdi va o'zbekcha Wikipedia 316 ta tilli reytingda 57-o'ringa chiqdi. Quvonlarli tomoni, o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni 25 million, hind tilining esa 592 million so'zlashuvchisi bor. Ammo "wikistipendiya" hind tilini ham ortda qoldirdi.


Shahribonu
RAHMATOVA

"BIZNING YOSH IJODKORLAR"

Loyhiha muallifi:

Shahribonu RAHMATOVA

Gazetamizning so'nggi sahifasida e'lon qilinayotgan "Bizning yosh ijodkorlar" loyihasining 4-soni havola etilmoqda. San'at yo'nalishlari va ijodkorlar bilan tanishish zavqli, albatta. Kuzating, his eting va o'zinguini shu yo'nalishlarda sinab ko'ring!



Bu galgi qahramonimiz dastgohli va mahobatlari rangtasvir yo'nalishlarini o'z bo'yog'i bilan yuk-saltirayotgan yosh rasmom - Tursunmurod Musirmonov.

U san'atga bolaligidan mehr qo'yanan. 2010-yildan buyon tasviriy san'at bilan muntazam shug'ullanadi. Respublika rassomlik kolleji hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining amaliy san'at va dizayn fakultetida tahlil olgan.

Ijodga ilk qadam qo'yanidan to shu kunga qadar turli festival, ko'rlik-tanlov va ko'rgazmalarda ishtirot etib, faxrlansa arzigulik yutuqlarga erishdi. Birgina 2021-yilning o'zida jahon miqyosidagi "New York Art International Competition The American-European Holding in Culture and Arts New York, United States of America" tomonidan tashkil qilingan tanlovda, Valensiya shahrida tashkil etilgan "Valensiya oltin", Ispaniyada o'tkazilgan "Dali's Mustache, International Art Contest", Kann shahrida o'tkazilgan san'at tanlovlariда ijodli ishlari bilan munosib qatnashib, diplom, medal va kuboklarni qo'lg'a kiritgan. Davlatimiz tomonidan uning yutuqlari be'etibor qoldirilmadi - Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi, "Mard o'g'lon" ko'krak ni-shoni sohibiga oylandi.



"Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi muhim strategik kuch hisoblanadi. O'zbekiston - yoshlar eng ko'p yashaydigan mamlakatlaridan biri. Bizning zimmamida esa yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali va unumli foy-dalanish mas'uliyati bor. Shuni aytishim joizki, jahon miqyosidagi har qanday ko'rgazma-tanlov o'zbek yoshlarisiz o'tmaydi, men ham o'zbek tasviriy san'ati qay darajada yuksak ekanini isbotlashga harakat qilyapman", - deydi Tursunmurod.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor
SA'DULLAYEV

Musahhihlari:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omraviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqamli bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materialari tahririyat kompyuter markazida terildi va shifra-landi. Tahririyat manzili: 100093, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-99.

"Sharq" nashriyot-matbar aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №-755, Adadi - 10598. Boshishga topshirish vaqtiga - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



1 2 3 4 5 6